




Fidoyilik –
Vatanga xizmat demak!

2023-yil 30-dekabr, shanba,
155-156 (23.876-23.877)-son

**KUN
HIKMATI**
Aqlli inson
do'kondan ko'ngli
istaganini emas,
o'ziga eng zarur
narsani xarid
qiladi

1913-yil aprel oyidan chiqa boshlagan



www.zarnews.uz [@zarnews_uz](https://www.facebook.com/zarnews.uz) [@zarnews_uz](https://twitter.com/zarnews_uz)



BOLAJONLARGA PREZIDENT SOVG'ASI

Bu yil "Prezident archasi" tadbiri avvalgilaridan boshqacha bo'ldi. Samarkand va Kattaqo'rg'on shaharlarida tashkil etilgan tadbirlarga barcha shahar va tumanlardan 3 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan 900 nafarga yaqin olibayi bolalar uylari, SOS-bo'lalar mahallasi tarbiyalanuvchilar, boquvchisini yo'qotgan chin yetim bolalar, shuningdek, xizmat burchini bajarish chog'ida halok bo'lgan harbiy xizmatchilar hamda huquq-tartibot idoralarini xodimlarining farzandlari taklif etildi.

Viloyat hokimi Erkinjon Turdimov bolalarni bayram bilan qutladi. Shundan so'ng davlatimiz rahbarining bolalarga yo'ilgan Yangi yil bayrami tabrigi, 17 turdag'i shirinliklar, 2 turdag'i o'quv qurollari, smart soat, dars magnit taxtasini o'z ichiga olgan Prezident sovg'asi topshirildi. 200 nafarga yaqin 12 yoshdan kattalarga esa planshet mavjud sovg'alar tarqatildi.

- Tarbiyalanuvchilarimiz har gal Yangi yil bayramini o'zgacha kayfiyatda qarshi olishadi, - deydi SOS O'zbekiston bolalar mahallalari uyushmasining Samarkand shahar filiali direktori Dilrabo Davronova. - Bugun ham ularning quvonchi cheksiz. Filial-

da tarbiyalayotgan 70 nafar bolaga Prezident sovg'asi topshirildi.

Tadbirlarda teatrlashtirilgan tomoshalar namoyish qilindi, bayram dasturxonasi yozildi.

- Bir necha yilda beri viloyatimizda o'tkaziladigan "Prezident archasi" tadbirida qatnashaman, - deydi Natalya Davlatova. - Bu yilgi bayram avvalgilaridan o'zgacha, ko'tarinkin kafiyatda o'tyapti. Prezident sovg'asiga planshet qo'shib berilgani meni yanada xursand qildi. Bizga yaratilayotgan imkoniyatlardan foydalanim, kelgusida yurtimiz taraqqiyotiga munosib hissa qo'shadigan farzand bo'lishga harakat qilaman.

Erkinjon Turdimov viloyat bolalar ko'p tarmoqli tibbiyot markazida bo'lib, Yangi yil bayrami oldidan bemor bolalar holidan xabar oldi. Ularga sog'lik-salomatlilik tiladi.

Viloyat rahbari bolalarga sovg'a-salomlar ulashdi, ularning ottonalari bilan suhabat qurdi. Shifokorlarga ham minnatdorligini bildirib, bayram bilan tabrikaldi.

To'iqin SIDDIQOV,
Baxtiyor MUSTANOV (surat).

Samarqanda o'tkazilayotgan shaxmatning blits va rapid yo'naliishi bo'yicha VI jahon championati davom etmoqda.

Dunyoning 50 dan ortiq mamlakatidan 300 nafar shaxmatchi ishtirot etayotgan musobaqaning umumiy sovrin jamg'armasi 1 million AQSH dollarini tashkil etadi. Jahon championati dasturiga ko'ra, 26-28-dekabr kunlari 13 turda rapid yo'naliishi musobaqlari bo'lib o'tdi.

VI jahon championatida rapid yo'naliishi erkaklar o'rtaasida amaldagi jahon championi, norvegiyalik Magnus Karlsen 10 ochko bilan champion bo'ldi va besh karra jahon championiga aylandi. Ikkinchisi o'rinn 9,5 ochko jamg'argan Sloveniya vakilini Vladimir Fedoseyevga, uchinchisi o'rinn esa 9 ochkoga ega bo'lgan xitoylik Yu Yang Yiga nasib etdi. Hamyurtimiz Nodirbek Abdusattorov mazkur yo'naliishi 9 ochko to'plab 11-o'rinni egalladi.

Shu tariqi Magnus Karlsen 60 ming, Vladimir Fedoseyev 50 ming hamda Yu Yang Yi 40 ming dollar pul mukofotiga ega bo'ldi. Nodirbek Abdusattorov esa turnir orqali 5 ming, 30-pog'onadagi hamyurtimiz Jahongir Vohidov esa 1500 dollar ishlab oldi.

Ayollar bahsi 11 partiya davom etdi.

RAPID YO'NALISHIDA CHEMPTIONLAR ANIQLANDI



FIDE bayrog'i ostida dona surgan xalqaro neytral sportchi Anastasiya Bodnaruk 8,5 ochko bilan jahon championligini qo'liga kiritgan bo'lsa, keyingi o'rnlarni Hindiston vakilasi Humpi Koneru hamda xitoylik Le Tingji egalladi.

Ayollar guruhida birinchi o'rinni 40 ming, ikkinchi o'rinni 30 ming va uchinchisi o'rinni egallagan shaxmatchi 20 ming AQSH dollarini ishlab oldi.

Yurtimiz shaxmatchi qizlari orasida eng yaxshi natija Afro'za Hamdamovaga tegishli bo'ldi. U 11 imkoniyatdan 6,5 ochko jamg'argan holda 34-o'rinni band etdi.

Championatning blits yo'naliishi musobaqlar 29-30-dekabr kunlari o'tkazilmoqda.

Fazliddin RO'ZIBOYEV.

Yangi yil bayrami munosabati bilan Kattaqo'rg'on tumanida istiqomat qilayotgan 2 nafar Ikkinchisi jahon urushi qatnashchilariga davlatimiz rahbarining fabrik, mukofot va sovg'alari keng jamoatchilik tomonidan tantanali ravishda yetkazildi.

Kattaqo'rg'onlik urush qatnashchilar yo'qlandi



Kattaqo'rg'on tumanı hokimligi mas'ullari, Kattaqo'rg'on shahar harbiy qismi boshlig'i va Mudofaa bo'limi boshlig'i hamda tuman faoliyatlari Bog'ot mahallasida yashovchi 99 yoshi Rahmat bobo Qobilov va Tarnov mahallasida yashovchi 99 yoshi Rayim bobo Yusupov xonardoniga tashrif buyurib, davlatimiz rahbarining qimmatbaho sovg'asi va 2 million so'm bir martalik pul mukofotini tantanali topshirdi.

Parkinson kasalligini chip o'rnatish yo'li bilan davolash yo'lda qo'yildi

Parkinson kasalligi hozirgi zamон neyroixirurgiya va neyrologiyasining eng dolzab muammolaridan biri bo'lib, dunyoda har 1000 ta odamdan 1-3 tasida (0,1-0,3 foiz) kuzatiladi. Mamlakatimizda ham ushbu kasallik bilan kasallanganlar soni so'nggi vaqtarda ortib bormoqda.

2023-yilning 26-dekabr kuni Samarkand davlat tibbiyot universiteti qoshidagi neyroixirurgiya va neyroreabilitatsiya ilmiy-amaliy markazida Turkianying "Medikal Park" klinikasi professori Said O'zturk ishtirotida mamlakatimizda birinchi marta yangi jarrohlik davolash usuli yo'lg'a qo'yildi.

Neyroxirurgiya va neyroreabilitatsiya markazida 5 yildan beriladi.

beri parkinson kasalligi bilan og'rib kelayotgan 63 yoshli bemorning bosh qismiga chip o'rnatish orqali kasallikka barham berildi. Ushbu murakkab texnologiyali operatsiya muvaffaqiyatli amalga oshirildi hamda mamlakatimiz neyroixirurgiyasida parkinson kasalligini jarrohlik yo'li bilan davolashdagidagi qadam bo'ldi.

O'dilbek AHMEDOV.



2024-YIL 1-YANVARDAN NIMALAR O'ZGARADI?



* Fuqarolarning pensiya ta'monini yaxshilash va pensionerlarning qo'llab-quvvatlash maqsadida pensionerga hisoblangan, lekin o'z vaqtida olinmagan pensiyani to'lash muddati 12 oydan 24 oyga uzaytilridi.

* Andijon, Samarkand, Namangan, Qarshi va Urganch shaharlarida yo'lovchilar tashishni brutto-shartnoma asosida tashkil etish va molyalashtirish tizimi ishga tushirildi.

* Mikroqarzning eng yuqori miqdori 50 million so'mdan 100 million so'mgacha oshiriladi.

* Uy sharoitida yoki kasanachilik asosida daraxt va buta ko'chatlari (nihol) yetishtirish faoliyati o'zini o'zi band qilgan shaxslar shug'ulananish mumkin bo'lgan faoliyati (ishlar, xizmatlar) hisoblanadi.

* Atrof-muhitga ta'siri bo'yicha I toifaga va II toifaga kiruvchi yangi obyektlarni loyihalashtirishda yuqori samaradorlikka ega chang-gaz tozalash uskulularni va lokal suv tozalash inshootlari o'natalishi ko'zda tutilmagan loyihalarni davlat ekologik va shaharsozlik ekspertizalaridan o'tkazish hamda qurilishi tugallangan obyektlarni, ularni o'natalmagan holda foydalanishga qabul qilish man etiladi.

* Xotin-qizlarning haq to'lanadigan jamoat ishlari asosida fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarida ish yurituvchi bo'lib ishlashiga 11 oygacha muddatga ruxsat etiladi.

* 2026-yil 1-yanvargacha davlat xaridleri maxsus axborot portalida

davlat ishtirotidagi yirik korxonalar bilan kooperatsiya asosida tashkil qilingan kichik tadbirkorlarga o'zları ishlab chiqargan tovarlarni davlat buyurtmachilariga bir yilda 10 milliard so'mgacha to'g'ridan-to'g'ri shartnomalar asosida sotishga ruxsat beriladi.

* Yuk vagonlari va konteynerlarni taqdim etish hamda yugori tezlikda harakatlanadigan va tezyurur poyezdrlarda yo'lovchilarini tashish xizmatlari tariflarini davlat tomonidan tartibga solish amaliyotidan voz kechiladi va ularni bozor tamoyillari asosida tartibga solish mexanizmiga o'ttiladi.

* Umumiy o'rta ta'lrim muassasalarining pedagogik kasblari birinchi marta ishga qabul qilinayotgan talabgorlarni kasbiy sertifikatlash tizimi joriy etiladi.

* Davlat maktabgacha, umumiy o'rta va maktabdan tashqari ta'lrim tashkilotlari pedagog kadrlariga malaka toifasini berishning yangi tartibi joriy qilinadi.

* Umumiy o'rta ta'lrim muassasalarini direktorlarini har 5 yilda bir marotoba kasbiy sertifikatsiyalash tizimi joriy etiladi.

* Ta'lim sohasida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish, shu jumladan, tizim tashkilotlarda ish jarayonini raqamlashtirish maqsadida:

* bola tug'ilganidan so'ng doimiy yashash manzilidagi mikrohuduga biriktirilgan maktabda onlayn hisobga qo'yiladi;

- maktablarning har o'quv yili uchun qabul rejasiga my.maktab.uz elektron platformasida shakllantiriladi.

* Ma'muriy sudsiga shikoyat qilishda fuqaro va tadbirkorlardan davlat bojini undirmaslik, bunda davlat bojini ishni ko'rib chiqish natijasi bo'yicha aybdor tarafidan undirish tartibi joriy etiladi.

* Iqtisodiy sudsiga tomonidan soliq organlari ishtirotida ko'rila yilg'ida qurilishi asosida yurisdiqsiyasiga o'tkaziladi.

Soliq majburiyati bo'yicha da've qilish muddati 5 yildan 3 yilga tushiriladi.

Aholi va tadbirkorlarga ajratilgan kreditlar bo'yicha qarzdarlikni undirish bo'yicha sudning hal qiluv qarori chiqarilganda, mazkur kreditlar bo'yicha foizlar va neustoyka hisoblanishi to'xtatiladi.

To'lov miqdori kredit majburiyatlarini bajarish uchun yetarli bo'lmaganda, mablag'larni birinchi navbatda mutanosib ravishda muddati o'tgan asosiy qarz va foiz qarzorliklari, ikkinchi navbatda joriy to'lov uchun hisoblangan foizlar va asosiy qarzni, keyingi navbatlarda neustoyka va ijob xarajatlarini qo'llashga yo'naltirish tartibi o'rnatiladi.

* 2024-yil 1-yanvardan suv hisoblagichlarni o'rnatmagan tadbirkorlar suv va oqova suv uchun to'lovlarini suvni hisobga olish asboblarini o'rnatmagan iste'molchilar sifatida to'laydi.

MOLIYA-IQTISODIYOT
VA KAMBAG'ALLIKNI
QISQARTIRISH

* 2023-yilda yalpi hududiy mahsulot ishlabi chiqarish hajmi 74,2 trillion so'mni tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan 105,2 foizga o'sdi. Shundan, sanoat mahsulotlari ishlabi chiqarish hajmi 33,9 trillion so'm (o'tgan yilga nisbatan 105,6 foiz), qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlabi chiqarish hajmi 45,4 trillion so'm, (103,1 foiz), xizmatlar ko'rsatish sohasi hajmi 27,7 trillion so'm (111,2 foiz), qurilish-pudrat ishlari hajmi 9,7 trillion so'm (106,2 foiz)ni tashkil etmoqda.

* 386344 nafr aholi bandligi ta'minlandi. Shundan, 211584 nafr aholi o'zini o'zi band qilish orqali 166591 nafrasi doimiy va mavsumiy ish joylariga, 8169 nafr aholi haq to'lanadigan jamaot ishlariha joylashtirildi. 7336 nafrasi hunarmandchilik hisobiga (usta-shogird), 12106 nafrani yakka tartibdagi tadbirkor si-fatida ro'yxatdani o'tkazish va 18381 nafr ("Temir daftari", "Ayollar daftari" va "Yoshlar daftari")ga kiritilgan va boshqa aholiga yet maydoni ajratish orqali bandligi ta'minlandi.

* Hokim yordamchilari tomonidan "Onlayn mahalla" platformasida shakllantirilgan jami qiymati 1 trillion 156,4 milliard so'm mablag' o'zlashtirilib, 5 mingta loyiha 20 ming 677 nafr ishsiz fuqaroning bandligi ta'minlandi.

* Hokim yordamchilari tomonidan o'tkazilgan xatlovlarda viloyatdagi 1126 ta mahallaning 286 tasi

Samarqand 2023-yilda

chorvachilik, 204 tasi dehqonchilik, 127 tasi bog'dorchilik va uning turliyari hamda boshqa yo'nalishlarga ixtisoslashtirildi.

* Yil davomida hokim yordamchilari tomonidan mahallalarda umumiy qiymati 1800 milliard so'mlik 5 mingta mikrolyoha shakllantirilib, 21 mingta qo'shimcha yangi ish o'rni yaratildi. Shuningdek, viloyati 44 ta mikromarkaz (sanoat, chorvachilik, hunarmandchilik va kasanachilik yo'nalishida) tashkil etilishi hisobiga 507 ta yangi ish o'rni tashkil etildi.

* Dehqon xo'jaliklari tashkil etish hisobiga 1-dekabr holatiga 18381 nafr fuqaroga E-AUKSION platformasi orqali yer maydonlari ajratilib, ularning bandligi ta'minlandi.

* "Har bir oila tadbirkor" dasturi doirasida 48264 nafr fuqaroga 931 milliard so'mlik kredit mablag'i ajratildi.

* 812 ta ijtimoiy soha obyekti va davlat idoralarda 12950 kWlik 4200 ta aholi xonadoniga 5930 kWlik quyosh panelari o'rnatildi.

INVESTITSIYALAR VA MAHALLIY SANOATNI RIVOJLANTIRISH

* Umumiy qiymati 2034,3 million dollarlik 1876 ta investitsiya loyihasi ishga tushirilib, 27986 ta yangi ish o'nni yaratildi. Yanvar-

noyabr oylarida 537,2 million dollar miqdoridagi xoriyyi investitsiya va kreditlar o'zlashtirildi.

* Joriy yilning 1-dekabr holatiga 532,1 million dollarlik mahsulotlar eksport qilindi.

* Eksport geografiyasi qo'shimcha 5 ta yangi davlatga kengaytirildi va 60 ta davlatga yetkazildi. Birinchi marta Vietnam davlatiga 1,4 million dollarlik ipak mahsulotlari, Meksikaga 150 ming dollarlik yong'oq, Kanadaga 93,4 ming dollarlik profillar, Marokashga 85 ming dollarlik yong'oq va mayiz mahsulotlari, Angliyaga 53,4 ming dollarlik quritilgan meva eksport qilindi.

* Hozir viloyatda 6151 ta sanoat korxonasi mavjud. Shundan yirik sanoat korxonalar 68 tani hamda o'rta va kichik sanoat korxonalar 6083 tani tashkil etadi. Ular tomonidan yil yakuni bilan 34 trillion so'mlik mahsulotlar ishlabi chiqariladi.

* Hududiy investitsiya das-turiga muvofiq, 2023-yilda sanoat sohasida umumiy qiymati 14,1 trillion so'mlik 546 ta investitsiya loyihasi amalga oshirilib, 15060 ta yangi ish o'rni yaratildi.

* "Urgut" erkin iqtisodiy zo-nasidagi 85 ta loyiha doirasida 3,8 trillion so'mlik sanoat mahsulotlari ishlabi chiqarilib, 90 million dollarlik mahsulot eksport qilindi.

* Viloyat aholisining 75,4 foizi (3,11 million) markazlashgan ichimli suvi bilan ta'minlangan. 1,13 million aholi (24,6 foiz) muqobil ichimlik suv manbalari dan foydalabn kelmoqda.

* Yil davomida barcha dasturlar doirasida 167 ta suv obyekti 347,3 milliard so'm ajratilib, 806,2 kilometr ichimlik va oqova suv tarmoqlarida qurilish montaj ishlari olib borildi.

* 1888,4 kilometr uzunlikdagi umumiy foydalanshdagi avtomobil yo'llari, shaharlar va boshqa aholi punktkari ko'chalarida reconstruksiya va 16 ta ko'prikda ta'mirlash ishlari amalga oshirildi.

* Yo'lovchilar uchun quay,

xavfsiz bo'lgan 75 ta avtobus va

27 ta mikroavtobus xarid qilinib,

yo'nalishlarga joylashtirildi. Yil davomida 48 ta yangi yo'nalish tashkil etildi.

* Joriy yil kuz mavsumida 7 million 294 ming dona manzarali, mevali daraxt va buta ko'chatlari ekildi.

* Maqsud QURBONOV, viloyat adliya boshqarmasi boshlig'i o'rinnbosari, "Adliya a'llochisi" ko'krak nishoni sohibi:

– O'tib borayotgan yilda jamoamiz bilan qator yutuqlarga erishdik, yangi tashabbuslarga qo'llurdik. E'tiborlisi,

xalqimizga bir milliondan ortiq davlat xizmatlarini ko'rsatdik.

Viloyatdagi ikkita hududdan tashqari barcha

Davlat xizmatlari markazlarida xorija chiqish

biometrik pasportini rasmiylashtirish va berish

xizmati yo'lda qo'yildi. Samarqand shahar va

Past Darg'om tumani DXMDa "3 qadam" tamoyili bo'yicha xizmat ko'rsatish tezkorligini oshirish

maqsadida xizmatlar "oson", "o'rta" va "murakkab" toifalarga ajratildi.

Shuningdek, viloyatda davlat xizmatlarini

ko'rsatish sohasida Germaniya xalqaro hamkorlik

jamiyatni (GIZ) bilan hamkorlikda "Samarali davlat

boshqaruvi" loyihasini yo'lda qo'yishga muvaffaq

bo'ldik. Bu xodimlarimizga rivojlangan davlatlar

tajribasini o'rganib, sohaga ilg'or yangiliklarni tatbiq

etish imkonini beradi.



Bitiruvchilarining OTMlarga kirish ko'rsatkichi oshdi

2021-2022-o'quv yili yakunida maktab bitiruvchilarining oly ta'limga kirish ko'rsatkichi 36,5 foizni tashkil qilgan bo'lsa, 2022-2023-o'quv yiliда 40,5 foizga yetdi. Birorta ham bitiruvchish oly ta'limga muassasasiga kirmagan mabtablar soni 55 tadan 36 taga tushdi.

Maktab bitiruvchilarining 1200 nafrasi muddatidan oldin nufuzli xorijiy oly ta'limga muassasalariga o'qishga kirdi.

Yangidan 363 ta (13 ta davlat, 8 ta DXSH asosidagi va 342 ta oilaviy nodavlat) MTTlar tashkil etilib, qo'shimcha 10170 nafr bolal maftabgacha ta'limgan qamrab olindi.

Qo'shimcha 70 ta bir yillik bepul majburiy maktabga tayyorlov guruhlari tashkil etilib, 1480 nafr 6 yoshli bolalar qamrab olindi.

Maktabgacha ta'limg agentligi bilan nodavlat-bogcha.uz yangi platformasi orqali 342 ta (12320 o'rinci) tashabbuskor tadbirkor bilan oilaviy nodavlat MTTlarni tashkil etish maqsadida bitim tuzildi.

ISHONCHNOMA MULK HUQUQINI BERMAYDI

Qonunchiligidan qo'ra, mulkdor o'ziga tegishli avto-transport vositasini boshqa bir shaxsga oldi-sotdi shartnomasini rasmiylashtirish, balki avto-transport vositasini boshqarish va sotish huquqi bilan ishonchnoma orqali berishi mumkin. Biroq bu ishonchnoma mulk huquqini vujudga keltirmaydi. Buni bilmaslik yoki noto'g'ri tushunish esa ko'p holatlarda mulkdor va ishonchli vakil o'rtaida nizo kelib chiqishiga sabab bo'imoqda.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi-da ishonchnomaning bekor bo'lish holatlari aniq bayon qilingan. Jumladan, ishonchnomaning amal qilayidagi vaziyatlarda:

- ishonchnoma muddatining tugashi;
- ishonchnoma bergen shaxs uni bekor qilishi;
- ishonchnoma berilgan shaxsning bosh tortishi;
- nomidan ishonchnoma berilgan yuridik shaxs faoliyatining to'xtatilishi;
- nomiga ishonchnoma berilgan yuridik shaxs faoliyatining to'xtatilishi;
- ishonchnoma bergen fuqaroning muomalaga layoqatsiz, muomala layoqati cheklangan yoki bedarak yo'qolgan deb hisoblanishi yoxud vafot etishi;

- ishonchnoma olgan fuqaroning muomalaga layoqatsiz, muomala layoqati cheklangan yoki bedarak yo'qolgan deb hisoblanishi yoxud vafot etishi qobilatda bekor qilinadi.

Aytish joizki, bugungi kunda notarial idoralar da ishonchnoma orqali oldi-sotdi shartnomalarini rasmiylashtirish jarayonida ishonch bildiruvchining



salomatligi, ishonchnomaning amaldagi holati, hujjatda ko'rsatilgan vakolatlar doirasasi notarial uslarning avtomatlashtirilgan axborot tizimi orqali to'liq tekshirilishi yo'lda qo'yilgan. Ya'ni, agar unda yuqorida tilga olingan holatlarning birortasi aniqlansa, notarial harakatni rasmiylashtirish rad etiladi.

Gulandom MAHKAMOVA, Urgut tumanida xususiy amaliyat bilan shug'ullanuvchi notarius.



YILNING MUHIM VOQEALARI



* Viloyatdagi 90 ta kichik sa-noat zonalardagi 132 ta korxona tomonidan yil davomida 442,1 milliard so'mlik sanoat mahsulotlari ishlabi chiqarildi.

QURILISH SOHASIDA

* "Yangi O'zbekiston" mas-sivlariga 2502 xonadonli 69 ta ko'p qavatlari uy, shuningdek, boshqa hududlarda 8959 xonadonli 150 ta ko'p qavatlari uy foydalanishga topshirildi.

* Viloyat aholisining 75,4 foizi (3,11 million) markazlashgan ichimli suvi bilan ta'minlangan. 1,13 million aholi (24,6 foizi) muqobil ichimlik suv manbalari dan foydalabn kelmoqda.

* 27-iyul – Muaddislar sultoni qalamiga mansub arab va in-donez tillaridagi uch jildli "Al-Jome' as-sahih" asari Imom Buxoriyal qalqaro ilmiy-tadqiqot markaziga topshirildi.

* 17-avgust – Samarqandda Turkiy davlatlar tashkilotiga a'zo mamlakatlar Sog'liqni saqlash vazirlarining yig'ilishi hamda Turkiy dunyo tibbiyat kongressi bo'lib o'tdi.

* 24-avgust – Falastin tashqi ishlar va muhojirlar vaziri Ri-yod al-Malki boshchiligidagi delegatsiya Samarqandda bo'ldi.

* 24-avgust - Prezident Shavkat Mirziyoyev joylarda islo-hotlarning borishi, amalga oshirilayotgan bунyodkorlik ishlari, sanoat va xizmat ko'rsatish loyihalari bilan tanishish hamda hududi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish vazifalarini belgilash maqsadida Samarqandda bo'ldi.

* 7-8-sentabr – Samarqand shahrida Birlashgan Millatlar Tashkiloti huzuridagi Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti – FIO texnik ko'magida oziq-ovqat xavfsizligi bo'yicha xalqaro konferensiya tashkil etildi.

* 9-sentabr – Samarqandda "O'zbekiston-Osiyo - 2023" VI Osiyo talabalar forumi o'tkazildi.

* 14-sentabr – Toshkent shahrida "Zarafshon" gazetasining 110 yilligi, "Samarkandskiy vestnik" gazetasining 105 yilligi munosabati bilan "Hayot bilan hamnafas" mavzusida ma'rifiy tadbir yushtirildi.

* 4-sentabr Samarqandga "Hamdo'stlik madaniyat poytaxti" maqomi berildi.

* 16-17-sentabr – Samarqandda triation bo'yicha "Chal-lenge Samarkand" xalqaro turniri hamda O'zbekiston championati bellashuvlari o'tkazildi.

* 23-sentabr – Samarqand davlat universitetida "Ali Qushchi – Mirzo Ulug'bek ilmiy maktabining buyuk vakili" mavzusida xalqaro ilmiy konferensiya bo'lib o'tdi.

* 28-sentabr – Qatarda bo'lib o'tgan "Islom olamida madaniy tadbirlarning yangilanishi tomon" mavzusidagi XII konferensiya Samarqand Islom dunyosi madaniyati poytaxti sifatida tasdiqlandi.

* 7-oktabr – viloyat axborot-kutubxonasi markaziga 100 jildli "Turkiy adabiyot durdonalari" to'plami taqdim etildi.

* 12-oktabr – Samarqand shahrida Xalqaro notarial hamkorlik komissiyasining konferensiya o'tkazildi.

* 11-13-oktabr – Samarqandda Osiyoda hamkorlik va ishonch choralar bo'yicha kengash (SISA) Yoshlar kengashining oltinchi yig'ilishi o'tkazildi.

* 13-17-oktabr – Samarqand shahrida BMTning Cho'lla-nish va qurg'oqchilikka qarshi kurashish konvensiya (CRIC21) si ijrosini ko'rib chiqish qo'mitasining 21-sessiyasi bo'lib o'tdi.

* 16-20-oktabr – Samarqandda Butunjahon turizm tashkiloti (UNWTO) Bosh assambleyasining 25-sessiyasi bo'lib o'tdi. Unda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev nutq so'zladи.

* 17-18-oktabr – Samarqandda Turkiy davlatlar tashkiloti Oqso-qollar kengashining o'n to'rtinchisi yig'ilishi o'tkazildi.

* 24-oktabr – Samarkandda Turkiy davlatlar tashk



2023-yilda Samarqand oltita xalqaro musobaqaqa mezonlik qildi. Viloyatda 700 ga yaqin sport tadbirlari o'tkazilib, ularga 552 ming nafardan ziyod aholi jaib qilindi. Aholini sportga qamrab olish ko'satskichi o'tgan yilga nisbatan to'rt foizga oshib, 26 foizga yetdi (2024-2025-yillarda bu ko'satskichi 30 foizdan oshirish rejalashtirilgan). Jumladan, "Besh tashabbus olimpiyadasi" ommaviy sport musobaqalarining birinchi mavsumida 19 yo'nalishda 393 ming yoshlar mahalla, sektor, tuman (shahar), viloyat hamda respublika bosqichlarida bellashib, 17 ta oltin, 9 ta kumush, 12 ta bronza medali bilan umumijamoa hisobida birinchi bo'ldi.

Keyingi ikki yilda aholining sportga qamrovi 30 foizdan oshadi

"Besh tashabbus olimpiyadasi"ning ikkinchi mavsumi yangi nizomga muvofiq, o'quvchilar, professional ta'limga, olyi ta'limga muassasalar talabalar va mahalla yoshlari o'rutasida o'tkazildi. Musobaqalarda 97 ming 715 nafar o'g'il-qizlar qamrab olinib, hududiy bosqichda g'olib bo'lgan jamoalar respublika final bosqichida ishtirok etdi va 3 ta oltin, 1 ta kumush, 2 ta bronza medali bilan umumijamoa hisobida uchinchi o'rinni qo'lg'a kiritdi.

Viloyatda respublika budgeti mablag'lari hisobidan 25 ta Workout maydonchasi, investitsiya dasturi asosida 3 milliard so'mga Bulung'ur tumaniga sport maktabiga 18x30 o'chamdag'i sport zal qurib berildi. Ayni paytda "Besh tashabbus olimpiyadasi" musobaqalarida g'olib bo'lgan 16 mahallada sport maydonchalari qurilmoga.

O'zbekiston championati va kubogi bahsalarida sportchilarimiz 1388 ta oltin, 1268 ta kumush, 1701 ta bronza, jahon, Osiyo va xalqaro sport musobaqalarida 208 ta oltin, 179 ta kumush, 240 ta bronza medalini qo'lg'a kiritdi. Sport turlari bo'yicha viloyatimizdan O'zbekiston milliy terma jamoasi asosiy tarkibiga 750 nafar, zaxira tarkibiga 482 nafar sportchi qabul qilindi va terma jamoada faoliyat olib borayotgan samarcandlik sportchilarining soni 10 foizdan oshdi.

Hozirgi kunda Olimpiya va Paralimpiya o'yinlariga tayyorgarlik ko'rish va sportchilarning shug'ullanishi uchun gulay sharoit yaratish maqsadida hududiy dastur ishlab chiqilib, baracha sharoitlarga ega bo'lgan asosiy va yordamchi sport bazalari sifatida 34 ta sport inshooti birkirtirilgan. Xususan, 2024-yilda Fransiyaning Parij shahrida o'tkaziladigan Olimpiya va Paralimpiya o'yinlariga viloyatimizdan to'qiz sport turi bo'yicha 19 nafar sportchisi, paralimpiya bo'yicha 4 nafar va ikkita parasport turi bo'yicha nomzodlar saralab olingan.

Davlatimiz rahbarining 2021-yil 16-iyundagi "Aholining jismoniy tayyor-garlik darajasini baholash tizimini joriy etishning tashkili chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori bilan bu yil ilk bor aholining keng qatlamanidan ixtiyor va maxsus talablar bo'yicha "Jismoniy tayyorgarlik darajasi" sport sinovlari qabul qilindi.

Viloyatda sport sinovlarining birinchi bosqichida davlat idora va tashkilotlarining yetti ming nafr xodimi my.sport.uz platformasida sport sinovlarini topshirish istagini bildirdi hamda tuman va shaharlardagi 247 ta davlat idora va tashkilotlarda ishlovchilari 6959 nafr xodim sport sinovlaridan o'tdi. Ikkinchi bosqichda viloyatdagi 32 ta umumiy o'rta ta'limga maktabidan 8469 nafr o'quvchi "Jismoniy tayyorgarlik darajasi" sport sinovlari topshiridi.

Sport sohasida korrupsiya holatlari ning oldini olish maqsadida "ERP-Sport" yagona elektron boshqaruva tizimi, shuningdek, uning quyi "Ijodi imtihon" axborot tizimi ishga tushirildi. Ushbu platforma 24 yo'nalishni qamrab olgan bo'lib, tizimda ochiqli va shaflofikni ta'minlash, davlat budgeti mablag'lariidan samarali foydalanish, ortiqcha ovoragarchilikka barham berishga xizmat qiladi.

Yil so'ngida ko'hna kent yana bir nufuzli championatga mezonlik qilmoqda. 25-31-dekabr kunlari Samarqandda shaxmatning rapid va blits yo'nalishlari bo'yicha jahon championatiga dunyo shaxmat yulduzlari keldi.

Jahon championatinining umumiy mukofot jamg'armasi 1 million AQSH dollarini tashkil etadi. Umumiy summadan 700 ming dollarlari erkaklar, 300 ming dollarlari esa ayollar o'rasisidagi musobaqa g'olib va sovrindorlari o'rasisida taqsimlanadi.

Shuhrat RO'ZIYEV,
viloyat yoshlar siyosati va sport boshqarmasi boshlig'i.

Bugungi kunda hayotimizga raqamli texnologiyalarining kirib kelishi tufayli viloyatimizning tog'li va chekka hududlarida yashovchi aholi tomonidan mobil aloqa va internetga bo'lgan ehtiyoj ortib bormoqda. Shu sababdan ham sayyor qabullarda bo'layotgan murojaatlarning aksariyati zamonaviy internet tarmoqlarini tortish va mobil aloqa antennalarini o'rnatish borasida bo'imoda.

Nakurda mobil aloqa va internet yaxshilandi

"Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida"-gi Qonunga asosan, "O'zkomnazorat" inspeksiyaning viloyat hududiy shu'basi tomonidan fuqarolardan kelib tushayotgan murojaatlarni o'rganish maqsadida tog'li va aholi borishi qiyin bo'lgan hududlarda mobil aloqa xizmatlari sifati doimiy monitoring qilib borilmoqda.

O'rganishlar natijasiga ko'ra, "O'zbektelekom" aksiyadorlik kompaniyasining O'zmobay filiali tomonidan Urgut tumanining tog'li Uzunsoy mahallasi Sevazsoy qishlog'iда, Payariq tumanining Nakurt mahallasi Qo'shilish qishlog'iда va Bulung'ur tumanining G'o'bdin mahallasi Qorovultepa qishlog'iда yangi tayanch baza stansiylar o'rnatilib, aholiga mobil aloqa xizmatlari ko'rsatilishi yo'lg'a qo'yildi.

R.KARIMOV,
"O'zkomnazorat" inspeksiysi viloyat hududiy shu'basi mutaxassis.



"ZARAFSHON" ning QANOTLARI

Gazetamiz sahifalarining mazmundor, mulohazali, tahliliy maqolalar bilan boyishida faol jamoatchi muxbirlarning ham munosib hissasi bor.



Mamayunus Pardayev




Ilash Abdiyev



Xudoyberdi Komilov



Mardon Boltayev



Rabbim Hotamov



Turg'un Hasanov



Izzatilla Norquvvatov



Erkin Musurmonov

Taxmina Ikromova – O'zbekistonning eng yaxshi ayol sportchisi



Taxmina Ikromova 2004-yil Samarqand shahrida tug'ilgan. 15 yildan buyon badiyi gymnastika bilan shug'ullanib keladi. Faoliyati davomida O'zbekiston, Osiyo championi, jahon kubogi, xalqaro turnirlar g'olib va sovrindori bo'lgan.

Taxmina O'zbekistonda 2023-yilning eng yaxshi ayol sportchisi deb topildi. U yakunlanayotgan yilda yakkalik va juftlik yo'nalişlari Osiyo o'yinlari g'olib bo'ldi. O'zbekistonlik sportchilar orasida birinchi bo'lib "Parij-2024" Olimpiyadasi yo'llanmasini qo'lg'a kiritdi va bir qancha jahon kubogi bosqichlarida sovrindori bo'ldi.

- Ushbu sovrinni olishimni kutmagandim, - deydi Taxmina Ikromova. - Chunki mendan boshqa yana ko'plab talantli va mahoratli sportchilar bor edi. Yilning eng yaxshi ayol sportchisi bo'lganimdan xursandman. Bu muhofot kelasi yil Parijda bo'lib o'tadigan Olimpiya o'yinlari oldidan menha katta kuch-g'ayrat va shijoat bag'ishladi. Endi musobaqalarga jiddiy tayyorgarlik ko'rib, olimpiada ham champion bo'laman va yurtimiz bayrog'ini bal-and ko'taraman.

Sport xabarları

Taekwondo ITF

Toshkent shahrida Sportning taekwondo ITF turi bo'yicha bo'lib o'tgan beshinchni Osiyo kubogida viloyat jamoasi 18 ta oltin, 17 ta kumush, 12 ta bronza medalni qo'lg'a kiritdi.

Akademik eshkak eshish

Tailanda o'tgan akademik eshkak eshish bo'yicha yoshlar o'rutasidagi Osiyo championatida Toyloq olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazi sportchilar Obidjon Jo'raqulov va Shahriyor Hamdamov oltin, Islamjon Ahtamov va bronza medalga sazovor bo'ldi.

Paraakademik eshkak eshish

Toshkentda o'tkazilgan sportning paraakademik eshkak eshish turi bo'yicha O'zbekiston kubogi bahsalarida viloyatimiz terma jamoasi a'zolari Lazizjon Sohibov hamda Shabbona Sattorova bronza medalni qo'lg'a kiritdi.

Shaxmat

"Besh tashabbus" olimpiyadasi doirasida umumiy o'rta ta'limga maktablari o'quvchilar o'rutasida shaxmat bo'yicha "Maktab ligasi" musobaqasining viloyat final bosqichida birinchi o'rinni Samarqand shahar 51-IDUM jamoasi, ikkinchi o'rinni Toyloq tumanidagi 34-umumiy o'rta ta'limga maktabi jamoasi va uchinchi o'rinni Jonboy tumanidagi 7-umumiy o'rta ta'limga maktabi jamoasi egalladi.

Basketbol

2009-2010-yillarda tug'ilgan o'g'il-qizlar o'rutasida o'tkazilgan basketbol bo'yicha viloyat birinchiligi o'g'il bolalar bahsida umumijamoa hisobida Samarqand shahar yoshlari g'oliblikni qo'lg'a kiritdi. Qizlar bahsida paxtachilikklar birinchi bo'ldi.

Yunon-rum kurashi

O'quvchilar o'rutasida yunon-rum kurashi bo'yicha viloyat birinchiligi bo'lib o'tdi. 200 nafarga yaqin sportchi ishtirok etgan musobaqada 11 vazn toifasida g'oliblar aniqlandi.

Inkluyuziv ta'limga rivojlantirish – zamon talabi

Samarqand shahrida O'zbekiston nogironlar assotsiatsiyasi va uning viloyat hududiy bo'limi tashabbusi bilan nogironligi bo'lgan shaxslar huquqlarini ta'minlash hamda inkluyuziv ta'limga rivojlantirish masalalariga bag'ishlangan sema-nar-trening bo'lib o'tdi.

Ijtimoiy himoya milliy agentligi viloyat boshqarmasi, "Yuksalish" umummilliy harakati viloyat bo'limi hamda nogironlik masalalar bilan shug'ullanuvchi NNTlar vakillari ishtirok etgan tadbirda O'zbekiston nogironlar assotsiatsiyasi raisi Oybek Isoqov so'za chiqib, davlatimiz tomonidan imkoniyati cheklangan shaxslarga yaratilayotgan shart-sharoit, ayniqsa, nogiron bolalarning boshqa bolalar qatori teng ta'limga tarbiya olishi, buning uchun ta'limga jarayonida inkluyuziv ta'limga joriy lozimligini ta'kidlab o'tdi.

- Inkluyuziv ta'limga barcha o'quvchilarini qamrab oladi, - deydi O'zbekiston nogironlar assotsiatsiyasi viloyat hududiy bo'limi rai-si Lochin Ernazarov. - Agarda maxsus ta'limga faqat nogironligi bor bolalarning o'zlarini ta'limga olsalar, inkluyuziv ta'limga barcha bolalar ta'limga jarayonida ishtirok etishadi. Shu maqsadda mamlakatimiz ta'limga tizimida inkluyuziv ta'limga rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish maqsadga muvofiqlirdi. O'quv muassasalarida to'siqsiz muhitni yaratish standartlari yaratilishi kerak va uni rivojlantirishga qaratilgan va nogironligi bor shaxslarning pozitiv obrazini shakllantirishga yordam beruvchi turli axborot kompaniyalarini o'tkazish lozim. Eng muhim, maktablarimizda tyutor, resurs-pedagog kabi shtatlarni kiritish muhim ahamiyatga ega.

Seminarda inkluyuziv ta'limga imkoniyatlari va qulayliklari haqida fikrlar bildirildi.

ALMASHTIRILGAN TOVAR UCHUN PENYA TO'LADADI

- Farzandimni bog'chaga navbatga qo'ygandim. Ariza javobini olish uchun davlat xizmatlariga takror borishga to'g'ri kelardi. Yaqinda ushu xizmat javobini olish uchun markazga borish shart emasligi haqida eshitdim. Shu haqida ma'lumot bersangiz.

Gulbahor MIRZAYEVA,
Payariq tumani.

- Bu xabar to'g'ri. Farzandini bog'chaga joylashtirish uchun ariza Davlat xizmatlari markazi orqali berilgan bo'lsa, bundan buyon yo'llanma shakllanishi bilan fuqaroning qo'l telefoniga SMS xabar orqali ariza raqami va maxfiy kod yuboriladi. Ushbu maxfiy kod bilan bog'chaga borish va uni mudiraga aytish kifoya. Avval bunday yo'llanma faqat qog'oz shaklida DXM orqali olinardi. Maxfiy kod bog'cha mudirasiga aytilmaguncha u yo'llanmani ko'ra olmaydi va bu bilan korrupsiya holatlarning oldi olinadi.

- Men ishlayotgan tashkilot rahbariyati meni boshqa ishga o'tkazmoqchi. Lekin ikkinchi tomon dastlabki sinov muddati belgilamoqchi. Bu qonunchilikka zid emasmi?

Botir MUHAMMADIYEV,
Toyoq tumani.

- Siz aytayotgan holat qonun talablariga zid hisoblanadi. Mehnat kodeksiga binoan, dastlabki sinovdan o'tish mehnat shartnomasida shartlashilgan bo'lishi kerak. Bunday shartlashuv mavjud bo'lgan taqdirda, xodim dastlabki sinovsiz ishga qabul qilingan deb hisoblanadi.

Dastlabki sinov faqat xodimni ishga qabul qilish chog'ida belgilanishi mumkin. Xodim boshqa ishga o'tkazilayotganda va boshqa ish beruvchiga xizmat safariga yuborilganda dastlabki sinov belgilanishiga yo'l qo'yilmaydi. Dastlabki sinov muddati 3 oydan, tashkilotarning rahbarlari va ularning o'rinoslarini, bosh buxgalterlar hamda tashkilotlar alohida bo'linmalarining rahbarlari uchun esa 6 oydan oshmasligi kerak.

- Bir yig'inda pensiyaga qo'shiladigan ustama haqlari mavjudligi haqidagi eshitib goldim. Lekin bu haqida shu paytgacha xabardor emasdim. Ayting-chi, shu rost bo'lsa, u kimlarga to'lanadi?

Sardor O'ROLOV,
Past Darg'om tumani.

- Bunday ustama mavjud. "Fuqarolarning davlat pensiya ta'mini to'g'risida"gi Qonunga ko'ra, belgilangan tartibda hisoblab chiqarilgan pensiyalarga ustama haqlar quydagi miqdordorda belgilanadi:

- I guruh urush nogironlariga pensiyani hisoblash bazaviy miqdorining 150 foizi;

- II guruh urush nogironlariga pensiyani hisoblash bazaviy miqdorining 125 foizi;

- ko'zi ojizlik bo'yicha I guruh nogironligi bo'lgan shaxslarga pensiyani hisoblash bazaviy miqdorining 100 foizi;

- I guruh nogironligi bo'lgan shaxslarga pensiyani hisoblash bazaviy miqdorining 75 foizi;

- II guruh yolg'iz nogironligi bo'lgan shaxslarga pensiyani hisoblash bazaviy miqdorining 75 foizi;

- urush qatnashchilar va ularga tenglashtirilgan shaxslarga pensiyani hisoblash bazaviy miqdorining 50 foizi;

- 1941 — 1945-yillardagi urush davrida mamlakat ichkarisida ishlagan va harbiy majburiyatni bajargan shaxslarga pensiyani hisoblash bazaviy miqdorining 30 foizi;

- afoti harbiy xizmat yoki ichki ishlar organlaridagi, Milliy gvardiyadagi xizmat majburiyatlarini bajarish bilan bog'liq bo'lgan harbiy xizmatchilarning hamda ichki ishlar organlari, Milliy gvardiya xodimlarining ota-onalariga va yangi nikohdan o'tmagan beva xotinlariga (beva erlariga) pensiyani hisoblash bazaviy miqdorining 30 foizi.

- O'zbekiston oldida alohida xizmatlari bo'lgan shaxslarga pensiyani hisoblash bazaviy miqdorining 100 foizidan 150 foizigacha.

- yoshidan qat'i nazar, imtiyozi pensiyaga chiqish huquqiga ega bo'lgan artistlarga pensiyani hisoblash bazaviy miqdorining 75 foizi;

- teatr-konsert tashkilotlari artistlari va badiiy xodimlariga, teatr va musiqa san'ati ijodiy xodimlari tayyorlovchi o'quv muassasalarining professor-o'qituvchilari va konserstmeysterlariga, Vazirlar Mahkamasi belgilaydigan ro'yxatga ko'ra, pensiyani hisoblash bazaviy miqdorining 50 foizi.

Ma'lumot uchun, bugungi kunda pensiyani hisoblashning bazaviy miqdori 372 ming so'mni tashkil etadi.

- Ish beruvchi mehnat shartlarini xodimning roziligidis o'zgartirishi mumkinmi?

Sirojiddin YO'LDOSHEV,
Jomboy tumani.

- Ayrim holatlarda mumkin. Agar texnologiyadagi, ishlab chiqarish va mehnatni tashkil etishdagi o'zgarishlar, ishlar (mahsulot, xizmatlar) hajmlarining qisqarganligi munosabati bilan avvalgi mehnat shartlari saqlab qolinishi mumkin bo'limsa (masalan, xodim xatnlarni yuborish yoki arxivlash bilan shug'ullanadi, tizimi elektronlashtirish natijasida esa bu ishlarni texnika bajarishi mumkin), ish beruvchi xodimning roziligidis mehnat shartlarini o'zgartirishga haqli.

Ish beruvchi mehnat shartlarining o'zgarishi haqida xodimni kamida 2 yo'ldin yozma shaklda, imzo qo'ydirib, ogohlantirishi shart. Ko'rsatilgan muddatni qisqartirishga faqat xodim va ish beruvchi o'rtasidagi keleshuvga ko'ra yo'l qo'yildi. Ogohlantirish muddati pulli kompensatsiya bilan almashtirilishi mumkin. Ogohlantirish muddati tugach, xodim yangi mehnat shartlarida ishshashni rad etsa, xodim bilan tuzilgan mehnat shartnomasi bekor qilinishi mumkin. Bunday holda xodimiga ishdan bo'shatish nafaqasi va ish qidirish davrida o'rtacha oylik ish haqi to'lanishi bilan bog'liq kafolatlar qo'llanadi.

Xodim ish beruvchi tomonidan mehnat shartlari o'zgartirilganligi ustidan shikoyat qilişiga haqli.

- Hunarmanchilik bilan shug'ullanaman. Tadbirkor sifatida davlat ro'yxatidan o'tmoqchiman. Meni qiziqtirgani shuki, ro'yxatdan o'tish jarayonida biryo'la "Hunarmand" uyushmasiga ham a'zo bo'lishim mumkinmi?

Sayidrasul BOLTAYEV,
Narpay tumani.

- Bunday qulaylikdan albatta, foydalana olasiz. Avval siz aytayotgan masalaning imkon yo'q edi. Joriy yilning 13-oktabridagi (538-soni) Hukumat qarori bilan "Tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish tartibi to'g'risida"gi nizomga qo'shimchalar kiritildi.



NAZORAT KASSA MASHINASINI ISHLATMASLIK

22 million so'mgacha
jarimaga
sabab bo'ladi

Telefonimga deklaratsiya asosida daromad solig'idan qarzdorlik mavjudligi haqida xabar keldi. Men qanday daromadlarim uchun deklaratsiya taqdim etishim kerak?

A.FAYZULLAYEV.

- Jismoniy shaxslar quydagi manbalardan olingan daromadlari bo'yicha jamiy yillik daromadlari to'g'risida deklaratsiya taqdim etishlari lozim:

- mol-mulkni ijaraga berishdan;
- egaligida bo'lgan noturor obyektlarni sotishdan;
- 36 kalendar oyidan kam muddatda mulkida bo'lgan turarjoylarni sotishdan;
- yaqin qarindoshi bo'lmagan shaxslardan moddiy naf tarzida olingan hadyadan.

Jami yillik daromadlari to'g'risidagi deklaratsiya hisobot yilidan keyingi yilning 1-apreldidan kechiktirmay taqdim etiladi va hisoblangan soliq summasi 1-iyundan kechiktirmay to'lanadi.

- Uyimda qo'shnilarimizning bolalariga qarab, enagalik qilaman. Enagalar ham mehnat stajiga ega bo'lishi mumkinmi?

Z.ASHUROVA.

- Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 23-dekabrdagi 806-qarori bilan tasdiqlangan nizomga asosan, ollalarda bolaga qarab turish va ularni parvarish qilish xizmati (enagalik) o'zini o'zi band qiladigan shaxslar shug'ullanigan faoliyat turi hisoblanadi. Bunday faoliyat bilan shug'ullanadigan shaxslar o'z faoliyatini ish staj sifatida hisoblanishi uchun soliq organiga ichtiyori ravishda BHMning 1 baravar miqdorida ijtimoiy soliq to'lash orqali o'zini o'zi band qilgan shaxs siyatida ro'yxatidan o'tishi kerai bo'ladi. O'zini o'zi band qilgan shaxslar jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i to'lamaydi.

- Ayrim hollarda sayyor soliq tekshiruvni xodimlari tekshirishga kelganda, xizmat guvohnomasini ko'rsatishdan bosh tortishadi. Shunday paytda tadbirkorlarda qanday huquqlar bor?

K.MAMUROV.

- Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 7-yanvardagi qarori bilan tasdiqlangan "Soliq tekshiruvlarini tashkil etish va o'tkazish tartibi to'g'risida"gi nizomga asosan, soliq to'lovchilar quydagi hollarda soliq organi mansabdor shaxslarini soliq tekshiruvini o'tkazish uchun hududga va joylarga qo'ymaslikka haqli.

- agar sayyor soliq tekshiruvini o'tkazish to'g'risidagi buyruq belgilangan tartibda rasmiylashtirilmagan va buyruq nusxasi soliq to'lovchiga berilmagan bo'lsa (soliq to'lovchi uni olishdan bosh tortgan hollar buntan mustasno);

- tekshiruchi mansabdor shaxs tekshiruvni tayinlash to'g'risidagi buyruqda ko'rsatilmagan, o'z xizmat guvohnomasini ko'rsatmagan bo'lsa;

- soliq tekshiruvini o'tkazishning buyruqda ko'rsatilgan muddatlar boshlanmagan yoki o'tib ketgan bo'lsa.

- Agar mol-mulk ijarasi bo'yicha bitim qarindoshlar o'rtasida tuzilsa, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i to'lash zarurmi?

Z.ERGASHEV.

- Agar mol-mulk ijaraga berilsa, ijaraga beruvchi jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i (JSHODS) to'laydi. Mol-mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlar mulkiy daromadlar jumlasiga kiradi.

Agar ijaraga oluvchi jismoniy shaxs bo'lsa, unga ushbu daromad uchun deklaratsiya asosida JSHODS bilan solinadi. Soliq kodeksida yaqin qarindoshga mol-mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlar bo'yicha imtiyozlar mavjud emas.

- Bir korxona ikkinchi korxonaga qaytarilmaydigan moliyaviy yordam berса, oлган korxona uchun daromad hisoblanib, aylanmada aks ettiriladi?

D.MINGBOYEV.

- Soliq kodeksiga asosan, bepul moliyaviy yordam ko'rinishida pul mablag'larini olish chog'ida korxona tekin olingan mol-mulk ko'rinishida daromadni tan oladi (pul - bu mulk). Moliyaviy yordam summasi jami daromadga kiritiladi va foyda solig'i (yoki aylanmadan olinadigan soliq) hisoblanadi.

Shuningdek, Soliq kodeksiga asosan, bepul olingan mol-mulk (xizmatlar) bo'yicha QQS summasi hisobga olinmaydi.

Savo shoxobchasida xaridorga chek berilmasi, onlayn nazorat-kassa mashinasidan foydalanimas, qanday jarimalar qo'llanadi?

A.ABDULLAYEV.

- Soliq kodeksiga asosan, nazorat-kassa mashinasining va hisob-kitob terminallariga qo'llanilishi majburiy. Ularni qo'llasmasdan, savdoni amalga oshirganlik va xizmatlar ko'rsatganlik, xuddi shuningdek, sotib oluvchiga kvitansiyalar yozib berish, talonlarni, cheklarni yoki ularga tenglashtirilgan hujjalarni berish majburiy. Bunday hujjalarni bermasdan, tovarlarni realitsatsiya qilganlik va xizmatlar ko'rsatganlik, shuningdek, hisob-kitob terminallariga orgali to'lovchni qabul qilishni rad etganlik besh million so'n miqdorida jarima solishga sabab bo'ladi.

Ish davrida malaka oshirish uchun nodavlat tashkilotlariga yo'naltirilgan ish haqimidan daromad solig'i to'lanadimi?

Z.AMINOVA.

- Soliq to'lovchining soliq davri davomida qayta tayyorlash va malaka oshirish uchun nodavlat ta'lim tashkilotlariga (kursni tugatganlik to'g'risida shunday tashkilotlar tomonidan berilgan hujjalarni mayjud bo'lganda) to'lash uchun yo'naltiriladigan, BHMning 8 baravarigacha (2 million 720 ming so'mgacha) bo'lgan miqdordagi ish haqi summalarini va boshqa daromadlari soliqqa tortilaydi.

Savollarga viloyat soliq boshqarmasi shu'ba boshlig'i Bekzod SALIYEV javob berdi.

Savollarga viloyat adliya boshqarmasi mas'ul xodimi O.MAMAYUSUPOV
javob berdi.





Aziz samarqandliklar!
Sizlarni kirib kelayotgan yangi –
2024-yil
bilan tabriklaymiz!
Barchangizga mustahkam sog'siq,
oilaviy baxt, kasbingizda ulkan
muvaffaqiyatlar tilaymiz!



Qutlovlari, reklama





*"Shyolkovo Agroxit – O'zbekiston"
Rossiya - O'zbekiston
qo'shma korxonasi jamoasi.*

Mahsulotlar sertifikatlangan.

*Hikmat izlaganga
hikmatdir dunyo*

“URGUT SAVDO KOMPLEksi”

MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYATI JAMOASI



*viloyatimiz ahli va
meimonlarini
**yangi
yil**
bilan tabriklaydi!*



Xizmatlar litsenziyalangan.

Samarqand keyingi paytda mamlakatning nafaqtir yirik sayyohlik, ilm-fan, madaniyat va san'at markazi, balki sanoati jadal rivojlanayotgan hududlardan biriga aylanmoqda. Bu yerda yiliga o'nlab sanoat korxonalari, ishlab chiqarish ob'ektlari ishga tushirilmoxda. Mazkur jarayonda esa davlatimiz rahbarining 2017-yil 12-yanvardagi farmoni bilan tashkil etilgan “Urgut” erkin iqtisodiy zonasini yetakchilik qilayotir.

SANOATIMIZ SALOHİYATI OSHMOQDA



6 MINGDAN ZIYOD ODAM ISH BILAN TA'MINLANADI

Mazkur hududning sanoat salohiyatini yanada oshirish maqsadida viloyatning barcha shahar va tumanlarida “Urgut” ElZ filiallarini tashkil etish bo'yicha zarur chora-tadbirlar, rejalor belgilab olindi.

Jumladan, yangi yildan boshlab Jomboy tumanida umumiyyat qiymati 163,3 million dollarlik 11 ta loyiha uchun 102 hektar maydon, Paxtachida 16,8 million dollarlik 6 ta loyiha uchun 80 hektar beriladigan bo'lsa, Urgut tumanida qiymati 507,8 million dollarni tashkil etuvchi 65 ta loyiha uchun 132 hektar yer ariatiladigan bo'ldi. Buning natijasida Jomboyda 1160 ta, Paxtachida 300 ta, Urgutda esa 7440 ta yangi ish o'rni yaratildi.

Ayni paytda bu yerda qanday loyi-halar amalga oshirilmoqda va qaysi yo'nalişlarda mahsulotlar ishlab chiqarilmoxda? Bu zonaning tashkil etilishi oddiy odamlarning kundalik hayotida qanday aks-sado beriyapti?

Shu va boshqa savollarga javob topish maqsadida yaqinda iqtisodiy zonaning 37 ta korxonasi joylashgan Urgut tumanidagi Sariqtepa mahallasida bo'ldik.

QISHLOQ QIYOFASI O'ZGARDI

– Erkin iqtisodiy zona tashkil etilishi bilan eng avvalo, mahallamizning infratizilmasi butunlyk o'zgarib ketdi, - deydi Sariqtepa mahalla fuqarolar yig'ini raisi Komil Mahmatqulov. – Qariyb 5 kilometrlik ichki yo'llar to'liq asfalt qiliindi, eskirgan simyog'ochlar, transformatorlar yangisiga almashtirilib, elektr ta'minoti yaxhilandi. Eng muhim, 500 ga yaqin mahalladoshimiz ish bilan ta'minlandi.

Turbotoshimizning 2023-yil 11-yanvardagi qaroriga asosan, Qoraqalpog'iston Respublikasining Beruniy tumani dan 22,3 hektar hamda Qashqadaryo viloyati Kitob tumanidan 37,4 hektar yer uchastkasi ajratilib, “Urgut” erkin iqtisodiy zonasini umumiyyat maydoni 1902,5 hektara yetdi.

2023-yilning 1-noyabr holatida “Urgut” ElZ da umumiyyat qiymati 909,3 million dollarlik 163 ta yangi loyiha usida ish olib borilayotgan bo'lib, mazkur loylilaring ishga tushishi natijasida 11623 ta yangi ish o'rnlari yaratilishi rejalashtirilgan.

Mazkur sanoat korxonalarini tomonidan yilning 10 oyida umumiyyat qiymati 3 trillion 88,6 milliard so'mlik mahsulot ishlab chiqarilib, 75 million dollarlik mahsulot eksporti amalga oshirildi. Hududdagi 50 ga yaqin korxona tomonidan Rossiya Federatsiyasi, Qozog'iston, Tojikiston, Turkmaniston, Xitoy Xalq Respublikasi, Turkiya, Belarus kabi

o'ndan ortiq davlatga gilam, ip kalava, to'qimachilik mahsulotlari, elektrotexnika, trikotaj, qishloq xo'jaligi, qurilish materiallari va boshqa 80 turdan ortiq mahsulot eksport qilinmoqda.

O'ZIMIZDA HAM ISHLASA BO'LARKAN...

- Hozirda hududda umumiyyat qiymati 513 million dollar bo'lgan 80 ta loyihami amalga oshirish bo'yicha qurilish-montaj ishlari ketmoqda, - deydi “Urgut” ElZ ro'yxatga olish bo'limi boshlig'i Eldor Ochilov. – Shuningdek, joriy yil oxiriga cha umumiyyat qiymati 228,1 million dollar bo'lgan (bu mablag'larning 62,5 million dollarini korxonaning o'z mablag'i, 93,3 million dollarini bank krediti va 72,3 million dollarini xorijiy investitsiya tashkil etadi) 12 ta loyiha ishga tushirilishi rejalashtirilishi. Mazkur loyihiilar to'liq ishga tushirilishi natijasida 1000 ta yangi ish o'rni yaratiladi.

2023-yilning yanvar-oktabr oylarida umumiyyat qiymati 126,1 million dollarlik 7 ta loyiha ishga tushirilib, 601 kishi doimiy ish o'rniiga ega bo'idi.

– Ro'zg'or tebratish uchun uch yil xorijda yurdim, mana, o'zimizda ham ishlasa bo'larkan, - deydi Abduvahob Jumayev. – Bu yerda mehnat qilish uchun barcha sharoit mavjud. Eng muhim, oylik maoshni o'z vaqtida berishadi. Yaxshi ishlaganlar esa mukofot ham olishadi. Shunday sharoitni yaratganlarga ming rahmat!

MAHSULOTLARIMIZ XORIJDA HAM JUDA XARIDORGIR...

Yaqqinda iqtisodiy zonada loyiha qiymati 5,4 million dollarga teng bo'lgan “ELECTRONICS-IDEAL” mas'uliyati cheklangan jamiyati hamda loyiha qiymati 29,6 million dollarlik o'simliklarni himoyalash kimyovali vositalari ishlab chiqarishga xitisoslashgan “SCHELKOVO AGROHIM-O'ZBEKISTON” qo'shma korxonasi ishga tushirildi.

– Korxonamiz asosan, maishiy texnika, yarim avtomat kir yuvish mashinalari va zamonaliv changyutkichlar ishlab chiqaradi, - deydi “ELECTRONICS-IDEAL” MCHJ rahbari Nazir Asadov. - Hozirgi kunda bu yerda 80 kishi ishlayapti va ular ishlab chiqarayotgan mahsulotlar ichki bozor va xorijda juda xaridorgir bo'lmoxda.

Ishlab chiqarilayotgan safitali va raqobatbardosh mahsulotlar evaziga “Urgut” erkin iqtisodiy zonasining eksport hajmi yil sayin oshib borayotir. Masalan, 2021-yilda eksport hajmi 62,6 million dollarni tashkil etgan bo'lsa, joriy yilning noyabr oyigacha bu raqam 100 million dollarдан oshdi.

Yormamat RUSTAMOV.

Shom vaqt edi

TEZ TIBBIY YORDAM QABULXONASIDA KO'RGANLARIM



Ishim tushgani bois bu bo'limga maslahat so'rash uchun kechroq bordim. Shom vaqt edi. Ko'zim tushgani shu bo'ldiki, go'yo bu yerda ish vaqt tugamaydigan-dek: qaysidir bemor navbat kutyapti, kimdir shifokor yozib bergan retsept qog'ozini o'qigancha ming xayol bilan dalaga oshiqadi. Bemorning ortidan kelganlar chekka-chechkka dunyoning tashvishidan gaplashadi. Qabulxonadagi telefon tovushti “o'chay” demaydi. Boyaqish hamshira yozib olish va xabarni shifokorlarga yetkazishda ham charchamaydi.

- Ishlaring og'ir ekan...

- E, qo'ysangiz-chi, singlim, - deydi bemorning gipslangan qo'lini doka bilan o'rayotgan vrach. - Kasbimiz shu-da.

Yonimizda ikki nafr o'spirin turibdi. Ularni it tishlagan, it ham o'ziniki.

- Ehtiyyot bo'lish kerak-da, uka. "It semsira, egasini opadi", degan maqol bor. Jarohati xavfi emas. Maktabingga boraver. Bir haftadan so'ng jarohatni qaytadan bog'layman. Navbatdagi bemor kirsin!

Ochig'i, bunaqa sharoitni binchin ko'rishim va qayta ko'rishga yuragim bo'lmoxda kerma. Koridoridan hamshira ham, vrach ham shunaqa tez yuradiki, ularga qarab, men charchab ketaman. Turli kasallarni ko'rib, tag'in dilimni vahima bosadi. Ular esa o'rganib ketishgan. Shu payt hamshiraning yangroq ovozi eshitildi.

- "Tez yordam" keldi. Tramatolog tayor tursin.

Baribir ovozi qulog'imga hazm bo'lmoxdi. Kim bo'ldiykan, nima balo bo'ldiykan? Xayol-larim bemor tomon chopib ketadi. Yoshmikan, keksamikan, ishqilib go'dak bo'lmoxda.

Binoni ko'chirgudek ovozi bilan "tez yordam" mashinasi kelib to'xtadi. Besh-olti kishi tezda undan bemorni olib tusha boshladи. Go'yo yordamim tegadigandek, men ham eshik tomon shoshilaman, uni ko'rgach, butun tanamga og'riq o'rmalay boshladи. 13-14 yoshlar atrofdagi o'spirinning nosali kasalxonani tutib ketdi. Hatto yo'lakda navbat kutib turganlar ham vahimaga tushib qolishdi. Bemorni tezda reanimatsiya xonasiga olib kirishdi. Ko'p o'tmay, hamshiralardan biri chiqdи.

"Bolakayga nima bo'ldi? Qani bolam!" Ichida ko'z yoshi qotib qolgan ona bolasi tomon oshiqadi. Men esa butunlay o'zimni yo'qtaman, hatto nimaga kelganim ham yodimdan chiqqandek bo'ladi. Faqat shifokorlarga omad tilayman, sabr tilayman, ularni duo qilaman. Chunki biz asrolmag'an narsani ular asrashyapti.

Ba'zan hayotidan, qayeridir ozgina og'rigani dan shikoyat yoki bahona qilib, nolib yurganlar ni shu yerga bir bora taklif qilish kerakmikan, deb o'ylab qolaman. Kim biladi, ehtimol bu ayolligimning ojiz xulosasidir.

Gulchiroy

ABDULLAYEVA,

Paxtachi tumani.

PAST DARG'OM TUMANI TIBBIYOT BIRLASHMASI JAMOASI



aziz yurtdoshlarimizni

va barcha

hamkasblarini

Yangi yil

bilan tabriklaydi.



"SAMARQAND KAMALAK INVEST TEKSTIL"

MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYATI JAMOASI



barcha

vatandoshlarimizni

YANGI YIL

bayrami bilan tabriklaydi.



Mahsulotlar sertifikatlangan.

O'ZBEKİSTON KASABA UYUSHMALARI FEDERATSIYASINING SAMARQAND VILOYATI KENGASHI



Xalqimiz farovonligi,
Vatanimiz taraqqiyoti yo'sida
mehnat qilayotgan qadrli
yurtdoshlarimizni yangi –

2024 yil

bilan qutlaydi.

DA'VOLAR BO'LSA...

Jomboy tumanida xususiy amaliyat bilan shug'ullanuvchi notarius Qodirov Ulug'bek Tolibovich notarial idorasida marhum Xolmzayev Abdurashidga (2017-yil 2-iyulda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rلarning Qodirov Ulug'bek Tolibovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Jomboy tumanı Saroy ko'chasi, 15-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyat bilan shug'ullanuvchi notarius Nishanova Umida Ismatillayevna notarial idorasida marhum Davronova Zurafo Tairkulovnaga (2020-yil 22-fevralda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rلarning Nishanova Umida Ismatillayevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Rudakiy ko'chasi, 132-uy, 2-xona.

Samarqand shahrida xususiy amaliyat bilan shug'ullanuvchi notarius Tursunov Suhrob Berdiqulovich notarial idorasida marhum Nazarov Safarga (2011-yil 14-fevralda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rلarning Tursunov Suhrob Berdiqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Beruniy ko'chasi, 200-uy, 3-xona.

BEKOR QILINADI

Samarqand tumanidagi "SAMARQAND MEDICAL" mas'uliyati cheklangan jamiyatining (STIR: 302480716) dumaloq muhri va burchak tamg'asi yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

2024-YIL TAQVIMI



D	S	CH	P	J	SH	Y
1	2	3	4	5	6	7
8	9	10	11	12	13	14
15	16	17	18	19	20	21
22	23	24	25	26	27	28
29	30	31				

D	S	CH	P	J	SH	Y
			1	2	3	4
5	6	7	8	9	10	11
12	13	14	15	16	17	18
19	20	21	22	23	24	25
26	27	28	29			

D	S	CH	P	J	SH	Y
			1	2	3	4
11	12	13	14	15	16	17
18	19	20	21	22	23	24
25	26	27	28	29	30	31

D	S	CH	P	J	SH	Y
1	2	3	4	5	6	7
8	9	10	11	12	13	14
15	16	17	18	19	20	21
22	23	24	25	26	27	28
29	30					

D	S	CH	P	J	SH	Y
		1	2	3	4	5
6	7	8	9	10	11	12
13	14	15	16	17	18	19
20	21	22	23	24	25	26
27	28	29	30	31		

D	S	CH	P	J	SH	Y
			1	2	3	4
3	4	5	6	7	8	9
10	11	12	13	14	15	16
17	18	19	20	21	22	23
24	25	26	27	28	29	30

D	S	CH	P	J	SH	Y
1	2	3	4	5	6	7
8	9	10	11	12	13	14
15	16	17	18	19	20	21
22	23	24	25	26	27	28
29	30	31				

D	S	CH	P	J	SH	Y
			1	2	3	4
5	6	7	8	9	10	11
12	13	14	15	16	17	18
22	23	24	25	26	27	28
29	30	31				

D	S	CH	P	J	SH	Y
						1
2	3	4	5	6	7	8
9	10	11	12	13	14	15
16	17	18	19	20	21	22
23	24	25	26	27	28	29
30						

D	S	CH	P	J	SH	Y
1	2	3	4	5	6	7
7	8	9	10	11	12	13
14	15	16	17	18	19	20
21	22	23	24	25	26	27
28	29	30	31			

D	S	CH	P	J	SH	Y
			1	2	3	4
4	5	6	7	8	9	10
11	12	13	14	15	16	17
18	19	20	21	22	23	24
25	26	27	28	29	30	

D	S	CH	P	J	SH	Y
						1
2	3	4	5	6	7	8
9	10	11	12	13	14	15
16	17	18	19	20	21	22
23	24	25	26	27	28	29
30						

Prezident farmoniga ko'ra, 2024-yilda quyidagi qo'shimcha dam olish kunlari belgilandi:

barcha xodimlar uchun
(ish hafasining turidan qat'i nazar):
22-mart - juma;
11-aprel - payshanba;
18-iyun - seshanba;
3-sentabr - seshanba;
31-dekabr - seshanba.

6 kunlik ish haftasida
ishlaydigan xodimlar uchun:
2-yanvar - seshanba;
23-mart - shanba;
12-aprel - juma;
31-avgust - shanba;
30-dekabr - dushanba.

5 kunlik ish haftasida ishlaydigan xodimlar uchun dam olish
kunlari quyidagi tartibda ko'chiriladi:
6-yanvar - shanba kunidan 2-yanvar - seshanba kuniga;
13-aprel - shanba kunidan 12-aprel - juma kuniga;
14-dekabr - shanba kunidan 30-dekabr - dushanba kuniga.

ta'qilganib, undan voz kechilgan. Ammo XVIII asrga kelib, slavyanlar ongida muhranib qolgan iloh, Yangi yil bayrami bahonasida mo'jizaviy ishlarga qodir, mehribon va saxiy qahramon sifatida qaytib kelgan.

ROJDESTVO YANGI YILMI?
Yo'q, aslida bular ikkita bayram hisoblanadi. Bugungi kunda o'zbeklar orasida Yangi yilning rimliklari ilohi Yanus sharafiga joriy etilganligini biladiganlar juda kam. Aksincha, mutlaq ko'chillik bu bayramni nasroniyalar bayrami, deb biladi. Sof e'tiqodli nasroniyalar bu bayramni rasman nishonlamasi, unga qarshi ekanligini esa bilishmaydi.

Nasroniyalar nishonlaydigan bayram "Rojdestvo" bo'lib, u o'zbek tilida "Mavlud kuni" deb ataladi. Unda Iso alayhissalom tug'ilgan kuni bayram qilinadi. Rojdestvo yangi taqvim bo'yicha katoliklar va protestantlarda 25-dekabrdra, rus, serb, arman-grigorian, sharqiy katolik cherkovlarida esa